

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.04. 2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SARIMSOKOV SIROJIDDIN SHOYZOQOVICH**

**PUBLITSISTIK MATNLARNING TEMPORAL VA ASPEKTUAL  
XARAKTERISTIKASI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus - 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Sarimsokov Sirojiddin Shoyzoqovich**

Publitsistik matnlarning temporal va aspektual xarakteristikasi (ingliz va o‘zbek tillari misolida)..... 3

**Саримсоков Сирожиддин Шойзокович**

Темпоральная и аспектуальная характеристика публицистических текстов (на материале английского и узбекского языков)..... 25

**Sarimsokov Sirojiddin Shoyzokovich**

Temporal and aspectual characteristics of publicistic texts (based on English and Uzbek languages) ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.04. 2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SARIMSOKOV SIROJIDDIN SHOYZOQOVICH**

**PUBLITSISTIK MATNLARNING TEMPORAL VA ASPEKTUAL  
XARAKTERISTIKASI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus - 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3568 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida [www.karsu.uz](http://www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mirsanov G'aybullo Kulmurodovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Teshabayeva Dilfuza Muminovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Mahmadiyev Shavkatjon Suyunqulovich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**


**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli Ilmiy kengashning « 6 » may 2025-yil soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (287 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 9 » aprel kuni tarqatildi.  
(2025 yil « 9 » aprel dagi № 9 raqamli reestr bayonnomasi).



  
**M.S. Kudaybergenov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor.

  
**J.E. Seytjanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor.

  
**G.A. Kurboniyazov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari  
doktori, professor.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida turli diskursga oid matnlarning semantikasi va pragmatikasini shakllantiruvchi lisoniy birliklarni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishga keng e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, publitsistik matn boshqa diskursga xos bo'lgan matnlardan o'z uslubiga egaligi bilan ajralib turadi. Publitsistik matn gazeta, jurnallarda, internet tarmoqlarida beriladigan siyosiy, iqtisodiy, informativ, ko'ngilochar va shu kabi matnlardan tashkil topib, keng ommaga mo'ljallanganligi sababli boshqa diskursdagi matnlardan matn qurilishi, shakli, lisoniy tarkibi, informativ xususiyati, lisoniy barqarorlikka egaligi bilan birgalikda, publitsistik matnlar tilshunoslikda ijtimoiy voqelikni aks ettiribgina qolmay, tinglovchiga ma'lumot yetkazish va ma'lum bir fikrni ommaga bildirish vositasi sifatida o'rganilishi ahamiyatga molikdir. Zotan, ushbu matnlarning temporal va aspektual xususiyatlarining kommunikativ vazifasini anglash muhimdir. Ingliz va o'zbek tillari misolida keltirilgan jihatlarni tadqiq etish til tuzilmasi, leksik-semantik vositalar va sintaktik qurilmalarning o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi va ommaviy kommunikativ xususiyati o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu sabab publitsistik diskursga oid matnlarning semantik tarkibini qiyosiy-tipologik o'rganish dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida publitsistik matn tadqiqining asoslovchi diskursiv xususiyati, pragmatik mazmuni, matnning kogeziya va kogerentligini ta'minlovchi lisoniy vositalar tadqiqiga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, publitsistik matnlarning analitik, aniq obrazga qaratilgan, baholovchi, ekspressiv, informativ jihatlariga oid tadqiqotlar ham ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortmoqda. Bu publitsistik matnlarning o'ziga xos lingvistik sathda ko'rilishi, matnning lisoniy bog'liqligini ta'minlovchi til vositalari tanloviga muhim e'tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi. Publitsistik matnning makon va zamonga bog'liqligini ta'minlovchi til vositalari sifatida aspektual va temporal hodisalar tadqiqi muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Bugungi kun o'zbek tilshunosligida matnning diskursiv tizimiga oid keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo, matnning ba'zi diskurslardagi pragmatik, grammatik sistemasiga tegishli qator ishlar bajarilgan bo'lsa-da, publitsistik matnlarning semantik, grammatik, pragmatik xususiyatlarini ochib beruvchi lisoniy vositalar to'liq o'rganilgan deb bo'lmaydi. Buni matn tadqiqiga qaratilgan ishlarda turli yondashuvlarda kuzatish mumkin. Bu mamlakatimizda lingvistika sohasida amalga oshirilayotgan qiyosiy-tipologik tadqiqotlarning yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki bo'lmoqda. Publitsistik matnning semantik, grammatik bog'liqligini aniqlash va o'rganish matn nazariyasi masalalarini ochib berilishi uchun xizmat qilmoqda.

Respublikamizda tilshunoslikning turli sohlaridagi tadqiqotlari rivojlanishi zamirida mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar davrida Yangi O'zbekiston barcha mamlakatlar bilan madaniy aloqalar uchun har tomonlama ochiq bo'lgan respublikadir. Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda ilm-fan rivojlanishini "eng katta boylik – aql-idrok va ilm-fan, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bilimlarning yo'qligi

hisoblanadi” – deb baholagan edi<sup>1</sup>. O‘zbek milliy qadriyatlari, ma’naviyati, madaniyatini o‘zida mujassam etgan badiiy matnning tadqiqi hamda uning tarjimasini amalga oshirish muammolarini o‘rganish dolzarblashmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda “xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”<sup>2</sup> masalasining kun tartibiga qo‘yilganligi ham zamonaviy tilshunoslik sohasini innovatsion tamoyil hamda mezonlar bilan boyitish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 08-oktyabrdagi PF – 5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ – 5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ – 2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 304-sonli qarorlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida turli tipdagi matnlarning grammatik, pragmatik, semantik jihatdan o‘rganilishi V.G. Admoni, N.F. Alefirenko, I.V. Arnold, N.D. Arutyunova, T.G. Biryukova, N.N. Bochegova, N.S. Valgina, I.R. Galperin, E.A. Goncharova, L.M. Loseva, Yu.M. Lotman, O.I. Moskalskaya, L.A. Navikov, V.V. Odinson, E.V. Paducheva, I.P. Susov, Z.Ya. Turayeva, K.A. Filippov, E.I. Sheygal, N.A. Shextman, T.A. Van Dijk<sup>3</sup> va boshqa

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожатномаси // Национальное информационное агентство Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. – <https://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // Xalq so‘zi, 09.10.2019. № 209 (7439).

<sup>3</sup> Адмони В.Г. Основы теории грамматики. М. Л., 1964. – 104 с.; Алефиренко Н.Ф., Голованева М.А., Озерова Е.Г., Чумаков-Жунь И.И. Текст и дискурс. Учебное пособие. Москва. “Флинта”. 2013. – 232 с.; Арнольд И.В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность: Сб. ст. / Науч. ред. П.Е.Бухаркин. - СПб.: Изд-во С.Петербург. ун-та, 1999. - 444 с.; Арутюнова Н.Д. Дискурс: Лингвистический энциклопедический словарь. –

olimlar tadqiqotlari bilan bog‘liq. Aspektuallikning leksik, grammatik, kognitiv, pragmatik tadqiqotlari bo‘yicha T. Beloshapkova, A. Bondarko, Yu. Maslov, B. Comrie, D. Dowty, C. Smith, Z. Vendler, H.J. Verkuyl, B. Rizaev, G‘. Mirsanov<sup>4</sup> kabi olimlar keng qamrovli tadqiqotlar olib borishgan. O‘zbek tilshunosligida matnlarning pragmatik, semantik xarakteristikasiga oid nuqtayi nazardan yondashuv borasida A. Abdusaidov, I. Azimova, D. Ashurova, D. Djumaboyeva, A. Mamajonov, S. Muxamedova, S. Mo‘minov, Sh. Safarov, S. Boymirzaeva, D. Teshaboyeva, Sh. Turniyozova, D. Xudoyberganova, M. Hakimov va M. Yuldoshev<sup>5</sup> singari tadqiqotchilarning ishlarini kiritish mumkin.

---

М.: Сов. Энциклопедия, 1990. – С. 136-137; Бирюкова Т.Г. Анализ и синтез текста: Учебное пособие. – Елец: Егу, 2007. – 98; Бочегова Н.Н., Гришкова Л.В., Портнягин Д.В., Степаненко О.А., Цыцаркина Н.Н. Теория и практика филологического анализа текста и дискурса: Монография – Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та, 2011. – 250 с.; Валгина Н.С. Теория текста. Москва. “Логос”. 2003. – 173.; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М. 2004. – 144 с; Гончарова Е.А. Дискурсивные параметры интерпретации литература текста. Русская германистика: Ежегодник Российского союза германистов. – М.: Языки славянской культуры. 2009. – С. 245 – 254; Лосева Л.М. Как строится текст. Пособие для учителей. Москва. “Просвещение”, 1980. – 94 с.; Лотман Ю.М. Чему учатся люди. Статьи и заметки. Москва. Центр книги ВГБИЛ им. М.И. Рудомина. 2009. – 416 с.; Москальская О.И. Грамматика текста. Пособие по грамматике. Москва. “Высшая школа”, 1981. – 183 с.; Навиков Л.А. Художественный текст и его анализ. Москва. ЛКИ. 2007. – 300 с.; Одинцов В.В. Стилистика текста. Москва. “Наука”. 1980. – 263 с.; Падучева Е. В. Семантические исследования: Семантика времени и вида в русском языке Семантика нарратива. М.: Языки русской культуры. 1996. – 464 с.; Сусов И.П. О двух путях исследования содержания текста // Значение и смысл речевых образований. – Калинин: Изд-во Калинин. Гос.ун-та, 1979. – С. 123-139.; Тураева З.Я. Лингвистика текста. Москва. “Просвещение”, 1986. – 127 с.; Тураева З.Я., Гришкова Л.В. Инвариантность и вариативность // Семантическое взаимодействия языковых единиц разных уровней. – Л.: ЛГУ. 1985. – С. 102 – 110; Филиппов К.А. Лингвистика текста. СПб. 2003. – 336 с.; Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2004. – 324 с; Шехтман Н.А. Ключевые слова в научном тексте // Научно-техническая информация. Сер. 2. Информационные процессы и системы. – 2003. – № 10. – С. 35 – 39.; Teun A. van Dijk. Society and Discourse. How Social Contexts Influence Text and Talk. Cambridge University Press. 2009. - 299 p.

<sup>4</sup> Белошапкова Т. В. Когнитивно-дискурсивное описание категории аспектуальности в современном русском языке. - М.: URSS, 2007. - 328 с.; Бондарко А.В. Функциональная грамматика. - Л.: Наука, Ленингр. отд-ние, 1984. – 136 с.; Маслов Ю.С. Введение в языкознание. - М.: Высшая школа, 1998. – 272 с.; Comrie B. Aspect. Cambridge University Press. 1976. 142 p.; Dowty D.R. Word Meaning and Montague Grammar: The Semantics of Verbs and Times in Generative Semantics and in Montague’s Ptq. Springer Science and Business Media, 1979. 415 p.; Smith C. S. The parameter of aspect, Second edition. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers. 1991. 372 p.; Vendler Z. “Verbs and Times.” Philosophical Review 56, 1967. –P. 143 –160.; Verkuyl H.J. A theory of aspectuality: the interaction between temporal and atemporal structure. Cambridge University Press. Cambridge. 1993. 411 p.; Palmer F.R. Mood and Modality / F.R. Palmer. – 2<sup>nd</sup> ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 236 p; Givon T. Syntax: An introduction. / T. Givon. – Vol. 1. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Co., 2001. – 500 p.; Bybee J. The evolution of grammar: Tense, aspect, and modality in the language of the world / J. Bybee, R. Perkins, W. Pagliuca. – Chicago, London: The university of Chicago Press, 1994. – 415 p.; Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита.– Тошкент: Фан, 1999. – 121 с.; Мирсанов Ф.К. Дискурс таркибида аспектуал ва темпораллик мазмун ифодаси. Монография. – Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2018. – 156 б.

<sup>5</sup> Абдусайдов А. Язык газеты и литературная (на материале местных и республиканских газет 70-80 годов). дис... канд. филол.наук. автореф. – Ташкент. 1988. -23 с.; Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол.фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент. 2005. – 39 б.; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи: Филол.фан.ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – 24 б.; Ашурова Д. Text linguistics. – Tashkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 200 p.; Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Stylistics of Literary text. – Tashkent: Alisher Navoiy nomidagi nashriyot, 2013. – 204 p. Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив - прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 320 б.; Джумабоева Д.Ш. Мустақиллик даври публицистик асарларидаги қўшма гаплар талқини: филол.фан.номз... дис.автореф. – Тошкент, 2006, 46 б.; Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент, 1989. – 62 б.; Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2007. – 46 б.; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2000. – 47 б.; Сафаров Ш.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Xorijiy tillarni o'qitishning lingvometodik tamoyillari" mavzusidagi yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** publitsistik matnlarda qo'llanadigan fe'llarning temporal va aspektual xususiyatlarini, zamon va makonga oid ma'nolarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz va o'zbek tillardagi publitsistik matnlarning tarkibini hosil qiluvchi lisoniy vositalarning vazifaviy xususiyatlarini aniqlash;

qiyoslanayotgan tillardagi ijtimoiy-siyosiy diskursdagi publitsistik matnlarning semantik tarkibini shakllantiruvchi vositalarning ma'no ko'lamini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillarida publitsistik matn semantikasida aspektuallik va temporallikning faollashuvini ta'minlovchi lisoniy vositalarni belgilash;

publitsistik matnlarning konseptual tarkibi va uning lisoniy ifodasining kognitiv asoslarini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** o'zbek va ingliz tillaridagi publitsistik matnlarda semantik-kogerentlik hamda grammatik-kogeziya vazifasini bajaruvchi lisoniy vositalar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** o'zbek va ingliz tillaridagi publitsistik matnlarning semantik bog'liqligini ta'minlashda temporal va aspektual vositalar o'rnini belgilashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda funksional-semantik tahlil, distributiv tahlil, qiyosiy-tipologik, chog'ishtirma, kontekstual distributiv, tasnifiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

publitsistik matnning strukturasi shakllantirishga xizmat qiladigan asosiy lisoniy vositalarning deyktik birliklarni ifodalovchi hamda boshqa vositalar (zamon, makon, aspekt, modallik) bog'liqligi natijasi matn semantikasini hosil qilishi dalillangan;

ingliz va o'zbek tili publitsistik matnlarining semantik tarkibini hosil qilishda aspektual (boshlanish, davomiylik, tugallanganlik) va temporal (makon, zamon) kategoriyalarning faollashuvi aniqlangan;

qiyoslanayotgan tillardagi publitsistik matnlarda faollashadigan aspektual va temporal hodisalarni matndagi vaqt, harakat, voqelik, makon kabi kategoriyalar

---

Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.; Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.докт.дисс.автореферати. Тошкент, 2012. – 48 б.; Турниёзова Ш.Н. Ҳозирги ўзбек тилида матн шаклланишининг деривацион хусусиятлари: Филол.фан. ном ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 26 б.; Курбонова М. Матн тилшунослиги. – Тошкент: Университет, 2014. – 116 б.; Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2004. – 283 б.; Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентриқ талқини. Филол.фан.д-ри... дисс. – Тошкент, 2015. – 136 б.; Юлдашев М.М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2009. – 48 б.; Юлдашев М.М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2009. – 314 б.;

ta'minlashi isbotlangan;

publitsistik matnlarning konseptual tarkibi ijtimoiy, siyosiy, ko'ngilochar ma'lumotlarning zamoni, makoni, kechimi hamda voqelanishi aspektual va temporal kategoriyalar yordamida ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

temporal vositalarning semantik xususiyatlari, publitsistik matndagi ma'lumotlarni vaqt kechimiga aloqador lavhalarini ajratib ko'rsatishda deyktik vazifani bajarishi, aspektual semantikaga esa matndagi lavhalarning ketma-ketligi, bog'liqligini ta'minlashga xizmat qilishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

tadqiqotdan tilshunoslikda matn lingvistikasi, semantika, pragmalingvistika, kontseptologiyadagi leksik-semantik, funksional-semantik, kognitiv jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishda foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan;

ushbu dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar o'quv qo'llanmalar va darsliklar tayyorlashda hamda matn lingvistikasi nazariy masalalarini hal qilishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, izlanish yuzasidan chiqarilgan xulosalar uning metodologiyasi va metodikasi bilan uyg'unligi, soha bo'yicha qo'yilayotgan muammoning dolzarbligi, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, lisoniy dalillar talqinining nazariy asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari qiyosiy-nazariy usullar yordamida yechilganligi va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya natijalari, xususan, publitsistik matnlarning aspektual va temporal tadqiqi hozirgi kunda ingliz va o'zbek tilshunosligida dolzarb bo'lib turgan kommunikatsiya nazariyasi, matn lingvistikasi, semantika, pragmalingvistika, kontseptologiya singari sohalar bo'yicha mavjud ilmiy ma'lumotlarni kengaytiradi va mukammallashtiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undan universitetlarning o'quv jarayonida matnning kontseptual tahlili, semasiologiya, kognitiv tilshunoslik fanlari bo'yicha ma'ruza va seminarlar, maxsus kurslarni tashkil etishda, dissertatsiyalar, monografiyalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash, izohli, ensiklopedik lug'atlar yaratishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Publitsistik matnlarning temporal va aspektual xarakteristikasini ingliz va o'zbek tillari misolida tadqiq va tahlil qilish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

publitsistik matnning strukturasi shakllantirishga xizmat qiladigan asosiy lisoniy vositalarning deyktik birliklarni ifodalovchi hamda boshqa vositalar (zamon, makon, aspekt, modallik) bog'liqligi natijasi matn semantikasini hosil qilishiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational linguistics at Central Asian universities" grant loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 8-oktyabrdagi 2108/02 ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida yaratilgan moduldagi publitsistik matnlarning temporal va aspektual xarakteristikasi tilning

rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysunishi hamda auditoriya tomonidan ushbu qonuniyatlarga tegishli munosabatni shakllantirishga erishilgan.

ingliz va o'zbek tili publitsistik matnlarining semantik tarkibini hosil qilishda aspektual (boshlanish, davomiylik, tugallanganlik) va temporal (makon, zamon) kategoriyalarning faollashuvi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 8-oktyabrda 2106/02 ma'lumotnomasi). Bunga asosan, asosiy ilmiy nazariy qarashlarga ko'ra, ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarda aspektual va temporal kategoriyalar ma'lum bir vaqt oralig'ida hodisalarning izchilligi va ularning faoliyatini ta'kidlash uchun qo'llanilgan.

qiyoslanayotgan tillardagi publitsistik matnlarda faollashadigan aspektual va temporal hodisalarni matndagi vaqt, harakat, voqelik, makon kabi kategoriyalar ta'minlashi yuzasidan bildirilgan xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 13-oktyabr kuni efirga uzatilgan "Idrok" ko'rsatuvining navbatdagi sonini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 16-oktyabrda 01-07/279-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur aspektual va temporal kategoriyalar asosida tillarning matndagi vaqt, harakat, voqelik va makon kabi kategoriyalar bilan bog'liqligi hamda ularning bir-birini qanday to'ldirishi yoritilgan.

publitsistik matnlarning konseptual tarkibi ijtimoiy, siyosiy, ko'ngilochar ma'lumotlarning zamoni, makoni, kechimi hamda voqelanishini aspektual va temporal kategoriyalar yordamida ochib berishda O'zR FA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda bajarilgan "Qoraqalpoq folklorida olamning etnolingvistik tasvirini monogafik aspektda tahlil qilish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida foydalanilgan (O'zR FA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2025-yil 15-yanvarda 17/1-son ma'lumotnomasi) va natijada matnlarning temporal va aspektual xarakteristikasi to'g'risidagi xulosalar folklorida zamon va aspekt tushunchalarining o'ziga xosligi aniqlangan va matnda faollashuvchi kategoriyalar orasidagi farqlar va o'xshashliklar o'rganilib, matnlarning ma'no va strukturasi etnolingvistikaga ta'sirini tahlil qilishda qo'llanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, shuningdek, kafedraning ilmiy seminarlarida muhokama qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob,

xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 153 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida publitsistik matnlarning o'ziga xos lingvistik sathda ko'rilishi, matnning lisoniy bog'liqligini ta'minlovchi til vositalari tanloviga muhim e'tibor qaratilgan. Ushbu vazifalarni bajaradigan til sathlari sifatida aspektual va temporal hodisalar tadqiqi muhim ahamiyat kasb etilishi nazarda tutiladi.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Matnning lingvistik maqomi”** deb nomlangan bo'lib, unda matn janrlari va tasnifining lisoniy tadqiqi, matn semantikasi masalalari, publitsistik matn tarkiblanishi tadqiqi amalga oshirilgan. Publitsistik matndagi eng muhim jihat asoslovchi materialni berilishi sanaladi. Shuningdek, publitsistik matnlar analitik, aniq obrazga qaratilgan, baholovchi, ekspressiv, informativ jihatlariga ham ega. Bu publitsistik matnlarni o'ziga xos lingvistik sathda ko'rilishi, matnni lisoniy bog'liqligini ta'minlovchi til vositalari tanloviga muhim e'tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi. Ushbu vazifalarni bajaradigan til sathlari sifatida aspektual va temporal hodisalarni keltirishimiz mumkin.

Matn ichidagi muloqot turli xil nutqlarning munosabati sifatida taqdim etiladi<sup>6</sup>. E'tibor markazidagi voqea-hodisalarning aks ettirilishida matnning ichki tarkibini shakllantiruvchi vositalar intertekstuallik, temporal vositalar va aspektual semantikaning o'zaro ta'sirida yuzaga keladi. Nutq vaziyatining izohlanishi esa temporal jihatdan ma'lum davr oralig'idagi jarayon bilan bog'liq. Narrator taqdim etayotgan voqea-hodisalarning temporal va aspektual semantikasi tahlili bevosita diskurs bilan ham bog'liq. Diskurs, o'z navbatida, narrativ hodisalarga quriladi. Narratologik yondoshuv mahalliy va xorijiy filologiyada o'zidan oldingi g'oyalar va usullarni qayta ishlashni o'z ichiga olganligi sababli samarali hisoblanadi. Narratologiyada M.M.Baxtinning ko'p funksiyali dialogik prinsipi<sup>7</sup> va B.A.Uspenskiyning konsepsiyasini, “nuqtayi nazar” kategoriyasi<sup>8</sup>, nemis tilidagi kombinatorlik tipologiyasi masalalari bilan shug'ullangan. F.Shtansel tomonidan ishlab chiqilgan “tipik bayon holatlari” tizimi<sup>9</sup> (mualliflik/shaxsiy/neytral hikoyachi/birinchi shaxs hikoyasi) ham biz tahlil qiladigan matnning aspektual semantikasida muhim o'rin tutishi mumkin. Hikoya shakllarining har birini tavsiflash va matnni u yoki bu shaklga bog'lash uchun zarur bo'lgan til hodisalari doirasini aniqlash algoritmlari E.V.Paduchevaning asarlarida keltirilgan<sup>10</sup>. Narrativlikda nutq qismlari, nutq vaziyati va kechimini farqlashda M.V.Shpilman tomonidan ishlab chiqilgan matn lavhasi metodologiyasiga tayanamiz. Bu matn

<sup>6</sup> Барт Р. Лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. - Вып. 8.: Лингвистика текста. - Москва: Прогресс, 1978. - С. 442-449.; Кристева Ю. Семиотика: Исследования по семанализу / Пер. с. фр. Э.А. Орловой. - Москва: Академический Проект, 2013. - С. 265.; Riffaterre M. Text production. New York: Columbia University Press. 1983. - P. 315.; Dällenbach L. Le récit spéculaire: essai sur la mise en abyme. Paris. Éditions du Seuil. 1977. - P. 188.

<sup>7</sup> Бахтин М.М. Автор и герой в эстетической деятельности. - Санкт-Петербург: Искусство, 1995. - С. 150.

<sup>8</sup> Успенский Б.А. Поэтика композиции. - Москва: Издательство «Наука», 1995. - С. 130.

<sup>9</sup> Штанцел Ф. Теория повествовательных форм. - Москва: Прогресс, 1979. - С. 176.

<sup>10</sup> Падучева Е.В. Семантические исследования. - Москва: Языки русской культуры, 1996. - С. 264.

lavhasining lisoniy tarkibini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Biror fikr, muloqot mazmuni, nutq vaziyati, voqea-hodisalar kechimi shaklini va unga mos til tarkibini aniqlash narrativ matnining asosiy belgilari sanaladi<sup>11</sup>. Publitsistik matndagi temporal va aspektuallik funksiyasini tavsiflashda hikoya kategoriyalari o‘rtasidagi ma’lumotlarni yetkazishda temporal vositalar ishtirokini ko‘rib chiqamiz. Chunki, temporal vositalar ma’lumotdagi voqea-hodisalar kechimini aktuallashtiradi, bir nechta voqeliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikni paydo bo‘lish nuqtalarini belgilaydi, ularning o‘zaro ta’siri jarayonida semantik bo‘shliqlarni ochib beradi.

### Matn, kontekst, diskursning tasnifi.

Jadval 1.

	Matn	Kontekst	Diskurs
Ta’rif	Til birliklaridan tashkil topgan, yaxlit mazmun va mantiqiy izchillikka ega yozma yoki og‘zaki nutq.	Matn yoki nutqni to‘g‘ri tushunishga yordam beruvchi ijtimoiy, madaniy, tilshunoslik yoki vaziyat sharoitlari.	Til birliklarining kontekstda qo‘llanilishi, muloqot jarayonidagi mazmunni va ijtimoiy omillarni ifodalash.
Xususiyati	- Yaxlitlik - Mantiqiy izchillik - Ma’no doirasi - Yozma va og‘zaki shakl	- Vaqt, makon va sharoitga bog‘liqlik - Madaniy va ijtimoiy kontekst - Qo‘llanish amaliyoti	- Kontekstga moslashuvchanlik - Nutqni maqsadga yo‘naltirish - Fikrni ta’sirli yetkazish

Matn, nafaqat sintaktik, semantik shakllangan, tugallangan ma’no yetkazuvchi hodisa, balki o‘ziga xos kommunikativ vazifalarni bajaradigan yirik konsept, ya’ni mental tuzilma ham sanaladi. Matnning kommunikativ maqsadi, vazifalari borasida ham turlicha fikr-mulohazalarga duch kelishimiz mumkin. Bu borada R.Bartning fikricha, “mazmun jihatidan ma’lum birlikni ifodalovchi har qanday gap bo‘lagi, ikkilamchi kommunikativ maqsadlar bilan uzatiladigan va shu maqsadlarga mos keladigan ichki shakllanishga ega bo‘lgan va boshqa madaniy omillar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday nutq bo‘limidir”<sup>12</sup>.

Matn semantikasi matn yaxlitligi, matnning semantik tarkibi, matnning botiniy va zohiriy sathlari masalalari tahlilini qamrab oladi<sup>13</sup>. Matnning botiniy strukturasi matn semantikasiga aloqador bo‘lib, unda bir lavhada ma’lumot alohida voqelikni ifodalaydi. Agar oldingi lavhada matn mazmuni bayon etuvchi vazifasida bo‘lsa, keyingisida esa ma’lumotning informativ xususiyatiga ko‘ra birinchi o‘ringa chiqishi mumkin. Bunda matndagi semantik belgilarga qo‘shimcha ravishda hikoya qahramonlarning ma’lumoti, hayotining parchalari bilan bog‘liqlik, lavhalardagi izchillik, voqea-hodisalar ketma-ketligi muhim o‘rin tutadi. Bunda matnning grammatik ko‘rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etmaydi. Matndagi keyingi ma’lumotlar tasvirlanuvchi shaxs, faoliyati yoki obyekt mazmuni, narrativ hikoya maqsadi yoritiladi. Shundan so‘ng matnning strukturaviy qismlarini, uning arxitektonikasini belgilaydigan matn elementlarini tanlashga

<sup>11</sup> Шпильман Е.Ш. Поэтика художественного текста. – Москва: Издательство «Гнозис», 2006. – С. 14-15.

<sup>12</sup> Барт Р. 1978. Keltirilgan asar. – С. 442-449

<sup>13</sup> Ашурова Д. Text linguistics. – Tashkent: Tafakkur qanoti, 2012. – P. 24.

e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda, berilayotgan ma'lumotlar zamon va makonga joylashtirilishi kuzatiladi. Asosiy ko'rsatkichlar sifatida ishlaydigan deyktik vositalar matnning kompozitsion tarkiblashishida muhim vazifa bajaradi. Matndagi zamon, makon vositalari kompozitsionallikni ta'minlanishida faol ishtirok etadi. Bundan tashqari matn semantikasida deyktik funksiyani bajaradigan vositalar semantik va pragmatik vazifani bajarishga mo'ljallangan bo'ladi. Ushbu vositalarning boshlang'ich vazifasi matn belgilarining tarkibiy tuzilishini namoyon etishida amalga oshiriladi<sup>14</sup>.

Yaxlitlik yoki kogerentlik to'liqlik va samaradorlik bilan birga matnning asosiy xususiyatlaridan biridir. Matn bog'liqligi qator terminologik vositalarda o'z ifodasini topadi. Jumladan, "kogerentlik", "kogeziya", "matn grammatikasi", "matn semantikasi" kabi atamalar matn tahlilini belgilovchi asosiy tushunchalar sanaladi.

Matnning kogerentligi mantiqiy-semantik, sintaktik va stilistik kogeziya turlarining o'zaro ta'siri natijasidir va kogerentlikning asosi aynan jumalarning mantiqiy-semantik bog'lanishini ta'minlaydi.

#### Matn janrlari tasnifi.

Jadval 2.

Matn turi	Izohi	Xususiyatlari	Bir-biridan farqi
Badiiy matn	O'quvchiga estetik zavq yetkazish, tasvirlash va hissiy kechinmalarni ifoda etishga hamda barchaga mazmun mohiyati tushunariligi bilan izohlanadi.	- Obrazli tasvirlar, badiiy vositalar - Ko'pincha subyektiv xarakterga ega - Ko'ngilochar yoki tarbiyaviy maqsadga xizmat qiladi.	Badiiy matn ilmiy va publitsistik matnlarga qaraganda ko'proq hissiy va obrazli bo'ladi.
Ilmiy matn	Ma'lum bir sohadagi bilimlarni mantiqiy, tizimli va aniq tarzda bayon etuvchi va aynan bir sohadagi mutaxassislargina anglay oladigan matn.	- Rasmiy uslubda yoziladi - Faktlar va dalillar asosida - Izchil mantiq va terminologiyaga asoslanadi.	Ilmiy matn badiiy matn kabi obrazli bo'lmaydi va publitsistik matndan ko'ra ancha rasmiyroqdir.
Publitsistik matn	Jamoatchilikka tegishli dolzarb muammolarni ko'tarish yoki fikr bildirish uchun yoziladigan, keng omma uchun mo'ljallangan hamda informativligi bilan ajralib turadigan matn.	- Emotsionallik va dalillarning uyg'unligi - Ommabop til va uslub - Fikrni ta'sirli yetkazishga qaratilgan.	Publitsistik matn ilmiy matnga qaraganda ommabop va ta'sirchan, badiiy matnga qaraganda rasmiyroqdir.

<sup>14</sup> Перфильева, Н.П. Метатекст в свете текстовых категорий / Н.П. Перфильева. Новосибирск: Изд-во НГПУ, 2006. - С. 184

Temporal munosabatlarni ifodalash uchun tilda ishlatiladigan shakllar funksional bir-birini to'ldirish prinsipiga asoslangan murakkab o'zaro ta'sirga kirishadi. Bu matn darajasida aniq hodisalarning tahliliga qaratiladi. Chunki aksariyat matnlarda semantik va pragmatik maqbullikni buzmasdan fe'llarni yoki nominativ birliklarni vaqtning shartli belgilari bilan aniqlash mumkin emas. Bunda morfologik qo'shimchalar, til birliklarining leksik ma'nosi, gaplarning bog'liqligini ta'minlovchi vositalarga e'tibor qaratiladi.

Fe'llar harakatni jumla va matn tarkibida aks ettirish uchun yetarli bo'lgan temporal hodisalarni ifodalaydi. Ular turli tarzda harakat vaqtining ushbu jumla uchun manba bo'lgan payti bilan o'zaro bog'liqligini aniqlaydi. Bundan tashqari voqea-hodisani vaqt kechimidagi kuzatiladigan harakatlar tartibini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, harakat vaqtini belgilaydi hamda ta'minlaydi. Harakatlarning hozirgi, o'tmish va kelajak bilan o'zaro bog'liqligini matnda kommunikativ vazifaga mos keladigan fe'l zamonlarining mavjudligi uning umuman mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri sanaladi. Matnda faollashadigan fe'llarni ma'lum konstruksiyalar sifatida harakatni bajarishi mumkin bo'lgan asosiy vazifasi tilda ishlatiladigan vaqt koordinatalari doirasida ifodalangan harakatlarning o'zaro bog'liqligi, ya'ni, harakatlarni vaqt kechimidagi kerakli aniqlik bilan joylashtirishga qaratiladi.

Publitsistik matnning uslubiy jihatdan quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi. Hikoyaviy - bu bir vaqtning o'zida sodir bo'lmaydigan, lekin bir-biriga ergashgan yoki bir-birini shartli bog'laydigan voqea yoki hodisalarning tasviri"<sup>15</sup>. Tavsif - bu nom yoki ot so'z birikmasi bilan atalgan jismoniy obyekt, shaxs, joy, hodisa va hokazolarning xususiyatlari, makonda, vaqt kechimidagi tarkiblanishi sanaladi. Mulohaza yuritish - mantiqiy aloqalar va munosabatlar haqidagi xulosalar zanjiridir. Matnda asosiy yuklamani aniqlovchi fe'lning zamon tizimi, aspekt va taksis xususiyatlari ahamiyatli sanaladi. Tavsifda, birinchi navbatda, ifodani belgilovchi leksik birikmalari tizimlashtiriladi, fe'l asosan tugallanmagan shakl bilan ifodalanadi.

Ommaviy axborot vositalari auditoriyasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, matni qabul qiluvchining qiziqish doirasi ikki sohaga bo'linadi – doimiy, har xil turlarni tavsiflovchi axborot xabarlar (keng ma'noda "so'nggi yangiliklar") va axloqiy mavzular va auditoriyaning turli xil ijtimoiy-demografik guruhlariga xos bo'lgan qiziqishlarni tavsiflovchi o'zgaruvchanlik.

Xabarning tarkibi dasturga moslangan holda yoki uning mavzusini ishlab chiqish yoki uni minimallashtirish uchun shakllantirilishi mumkin. Agar, xabarlar bitta mavzuviy guruhni tashkil etsa, unda, odatda, yakuniy xabar barcha xabarlarining ma'nosi bo'yicha aniq xulosa yoki umumlashtirishni o'z ichiga olmaydi. Shuning uchun sharhlovchi tomonidan keltiriladigan matn bo'laklari nisbatan mustaqildir va turli dasturlardagi bitta axborot qismi guruhidagi boshqa xabarlarining talqiniga qarab turlicha talqin qilinishi mumkin.

---

<sup>15</sup> Солганик Г.Я. Основы теории текста. Высшая школа. Москва. 1987. – С. 100.

## Publitsistik matn tarkiblanishi

**Jadval 3.**

<b>Morfologik xususiyatlar</b>	<b>Sintaktik xususiyatlar</b>	<b>Leksik xususiyatlar</b>	<b>Stilistik xususiyatlar</b>
Vaqt rejimi	Sodda gaplar	Realiyalar	Metaforalar
Fe'l nisbatlari	Ergashgan qo'shma gaplar	Publitsistik klishelar	Ritorik savollar
Qat'iy zamon shakllari	Uzluksiz bog'langan gaplar	Terminlar	Emotsional-ekspressiv uslub
Modal fe'llar	Tizimli gaplar (Yonma-yon gaplar)	Frazeologizmlar	Kinoya
Ot sintagmalari	Murakkab qurilmalar	Sinonimlar	Taqsimlash (qarama-qarshi qo'yish, zidlashlar)

Ommaviy axborot vositalarining axborot janrlari matnining asosiy birligi kompozitsion tuzilmaning doimiyliigi va nominativ birligi bilan tavsiflangan xabar bo'lib qoladi. Lekin xabarning ma'nosi uni manba va auditoriya tomonidan talqin qilinishi natijasida faollashadi, matn muhitini yuzaga keltiradi. Xabar muhitini o'rganish shuni ko'rsatadiki, xabarning muhim pozitsiyalari tarkibini o'rnatish dastlabki semiotik tahlilni talab qiladi.


Publitsistik uslub funksional uslublardan biri sifatida ijtimoiy munosabatlarning keng doirasiga xizmat qiladi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, sport shu kabi funksional turlariga ajratilib alohida diskurslarni hosil qiladi. Jurnalistik uslub gazeta va ijtimoiy-siyosiy jurnallarda keng to'liq namoyon bo'ladi. Bu diskursiv tahlildan ko'ra stilistik tahlil bilan shug'ullanuvchilar obyektiga kiradi. Radio va televideniya kabi ommaviy axborot vositalarining kuchli rivojlanishiga qaramay, gazeta zamonaviy jamiyat hayotida muhim o'rin egallashda davom etmoqda. Bu esa shu sohaga tegishli matnlarni turli lisoniy sathlarda tadqiq qilinishini amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Publitsistik matnning lingvistik tarkibi”** deb nomlangan. Unda aspektual semantikaning lingvistik nazariyasi, publitsistik matnda temporal birliklarning vazifalari, publitsistik matnda aspektual ifoda vositalari tahlil qilingan.

Voqea-hodisani tasvirlashda mantiqiy shaklida ichki tuzilishga ega emasligini ta'kidlaydi. T.Parsons bu yondashuvni yanada rivojlantirdi va hodisaning chegaralanganligi yoki chegaralanmaganligini ifodalovchi hodisa va vaqt o'zgaruvchilari bo'yicha predikatlar kiritdi. Biroq, boshqa ichki temporal tuzilma aniqlanmagan, shuning uchun obyektning o'zgarishi va voqea-hodisaning o'zgarishi o'rtasidagi muvofiqlikni ifodalab bo'lmaydi<sup>16</sup>. Binobarin, uning mulohazalarida yakuniy dalillar mavjud emas.

Fe'lning aksional xususiyatlari tavsifi:

<sup>16</sup> Parsons T. Underlying events in the analysis of English // In Ernest LePore and Brian McLaughlin, eds., *Actions and Events: Perspectives on the Philosophy of Donald Davidson*, Oxford and New York: Blackwell, 1985. - P. 235-267.




Matn doirasidagi obyekt, vaqt, makon yoki hodisalarni aniqlash uchun deytik birliklar qo'llaniladi. Kanonik nutq vaziyatlarida deytik elementlar so'zlovchiga qaratilsa, kanonik bo'lmagan vaziyatlarda tinglovchiga qaratiladi. Narrativ vaziyatlarda deytik elementlar so'zlovchi o'rnidagi shaxsga (personaj, hikoya qiluvchi) nisbatan tahlil qilinadi<sup>17</sup>.

Ma'lum voqea-hodisani shakllanishida temporal tarkib turlari va makon xususidagi ma'lumotlarning bog'liqligi talab etiladi<sup>18</sup>.

Zamonaviy tilshunoslikda matn tarkibida temporallik va aspektuallik "eng yuqori realiya" sifatida tan olinadi<sup>19</sup>. Ma'lumki, matn nutq ijodi jarayonida yuzaga kelgan asar bo'lib, yozma hujjat tarzida tugallangan mazmunga ega. Shuningdek, leksik, grammatik, stilistik, mantiqiy bog'liqlikka ega, ma'lum pragmatik asosli, maqsadli kabi qator xususiyatlardan tashkil topgan bo'ladi<sup>20</sup>. Bundan tashqari, grammatik, stilistik va mantiqiy bog'liqlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Publitsistik matn mazmuniga ko'ra turlari:



Aspektual farqlar (perfective/inchoative-durative) yuqorida qo'llanilgan tavsiflovchi atamalar aspektni muhokama qilishda mumkin bo'lgan ko'plab farqlarni ko'rsatadi. Ingliz tili uchun e'tiborga olish kerak bo'lgan ikkita eng muhimi: (1)

<sup>17</sup> Падучева Е.В. Семантические исследования: Семантика времени и вида в русском языке Семантика нарратива. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – С. 258-275.

<sup>18</sup> Evans V. Language and Time. A Cognitive Linguistics Approach. Cambridge University Press. United Kingdom. 2013. – P. 182.

<sup>19</sup> Золотова Г.А., Коммуникативные аспекты русского синтаксиса. Москва: Языки русской культуры, 1998. – С 6.

<sup>20</sup> Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: КомКнига, 2004. – С. 49

perfective/imperfective va (2) progressive/ non-progressive. Boshqa aspektual ma'nolar ham ingliz tilida ko'plab uchraydi, ammo aspektuallikning bu kichik turi bo'lib, ularni yuqoridagi farqlarning maxsus holatlari sifatida tasniflash mumkin. Bu bilvosita aspektlarning ishlashida ierarxiyani o'rnatadi. Birinchi farq an'anaviy perfective/imperfective bo'lib, taxmin mos keladi to'liq yoki vaqtincha belgilangan hodisalar navbati bilan doimiy yoki aniqlanmagan hodisalarga nisbatan qo'llaniladi. Perfektivlik tomonidan nazarda tutilgan aniqlik kiritish yoki vaqtinchalik chegara harakatning ichki chegarasi sifatida qaraladi; shunday qilib "boshlanish" huddi harakatni "tugatish" kabi perfektiv bo'ladi. Imperfektivlik boshqa tomondan, odatiy yoki takroriy, hamda doimiy hodisalarni o'z ichiga oladi. Biroq, farq faqat imperfektivlikning aniqlanmagan ochiq tugashidan farqli o'laroq, perfektivlikning belgilangan yoki vaqtincha bog'langan xarakteriga ishora qilmaydi. Bu, shuningdek, voqea bir butun sifatida qaralishi shu tarzda baholanmasligi bilan aloqasi bor. B.Komri perfektivlik butun vaziyatni tashkil etuvchi turli xil alohida bosqichlarni ajratmasdan, umuman vaziyatga qarashni ko'rsatadi; imperfektivlik esa vaziyatning ichki tuzilishiga muhim e'tibor beradi, deydi<sup>21</sup>. Forsit bu ikkisini bir-biridan ajratib ko'rsatadi, avval perfektivlikni ta'riflaydi, so'ngra perfektiv bo'lmagan har qanday hodisa imperfektiv ekanligini ta'kidlaydi. Muallif, imperfektivlikni perfektivga nisbatan qarama-qarshi qo'yadi. Forsitning ta'kidlashicha, perfektivlik "harakatni bitta aniq nuqtaga asoslanib jamlangan bir butun hodisa sifatida ifodalaydi"<sup>22</sup>. Garchi bu tavsif rus tili uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, bu ikki toifa o'rtasidagi umumiy farqni ko'rsatishi mumkin. Ikkinchi farq, progressive/ non-progressive voqealar orasidagi farq sifatida tavsiflanishi mumkin. Vaqtincha uzluksiz yoki davom etayotgan hodisa sifatida qaraladiganlarga nisbatan statik yoki dinamik tushunchalari qo'llaniladi.

Matnning mazkur tarkibiy qismlari alohida qayd etilgan iterativ aspektual vaziyatlar majmuasini tashkil qilgan. Ko'rinadiki, publitsistik matn uzviy bo'lmagan turli tipdagi ma'lumotlarni bir mazmunga birlashtiradi. Matn doirasida ifodalanayotgan voqea-hodisalarni bir mazmunga birlashishida predikatlarning aspektual semantikasi bog'liqligi, temporal vositalarning deytik vazifasi muhim sanaladi. Matnda aspektual va zamon shakllari mantiqiy mazmunni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi<sup>23</sup>. Shuningdek, aspektual va temporal vositalar matndagi muhim voqea-hodisalarga aniqlik kirituvchi deytik vazifalarni ham bajaradi<sup>24</sup>. Masalan: *Sultana is far from the only one with Old Hollywood visions of European summers. For much of the past two years, la dolce vita has felt relatively inaccessible to those hamstrung by pandemic fears. But recent research has shown the trend lines of international travel rising—and just in time, as a new batch of European hotels are opening or reviving history-rich properties. La Palma is itself a reinvention of the oldest hotel on the island—founded in 1822—once a gathering place for artists who*

<sup>21</sup> Comrie B. Aspect. Cambridge University Press. 1976. — P. 16

<sup>22</sup> Forsyth J. A grammar of aspect: usage and meaning in the Russian verb., Studies in the modern Russian language. Cambridge: Cambridge University Press, 1970. — P. 30

<sup>23</sup> Тураева З.Я. Лингвистика текста (Текст: Структура и семантика). — Москва: Просвещение, 1986. — С. 89.

<sup>24</sup> Мирсанов Ф.Қ. Дискурс таркибида аспектуал ва темпораллик мазмун ифодаси. Монография. — Тошкент: "Наврўз" нашриёти, 2018. — Б 133.

*painted the walls with their works. Today a fresco by Italian artist Roberto Ruspoli decorates the lobby*[Vogue.com. May 2022].

Mazkur lavhadagi *has felt, has shown* perfekt shakllari voqea-hodisalarni tugal ma'nosi ifodalanishiga ko'ra *European hotels are opening* progressiv shaklidagi voqea-hodisalarga presuppozitiv vazifani bajarib kelgan. Lavhadagi *“are opening”* progressiv shakli ma'lum voqeliklarni davom etishini emas, balki bir maqomga ega turli hodisalarni amalga oshirayotganligini, ya'ni iterativ vaziyatlar yuzaga kelishini ifodalab kelgan.

*Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirligi Prezidenti Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan 1-dekabr kuni Dubay shahrida o'tayotgan BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasining (COP28) asosiy yalpi sessiyasi ishida ishtirok etdi. “Hozirgi davrda iqlim muammolari jahondagi barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari zamonamizning eng ayanchli ekologik inqirozlaridan biri – Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyo va unga yondosh mintaqalarda, ayniqsa, jiddiy sezilmoqda”, - dedi Shavkat Mirziyoyev. Uning ta'kidlashicha, Markaziy Osiyoda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'p, so'nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib yo'qoldi. “Tuproq yemirilishi, muntazam chang va qum bo'ronlari, ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik qisqarishi, hosildorlikning keskin pasayishi va ko'plab boshqa muammolar mintaqada istiqomat qilayotgan millionlab odamlarning turmushi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda”, dedi davlat rahbari. Prezident “yashil” iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish Yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifasi ekanini ta'kidladi. Shavkat Mirziyoyev Parij shartnomasi doirasida Iqlim o'zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizmini tezroq kelishishga chaqirdi [Beshariq tongi, 2023-yil 9-dekabr 49 (9086)].*

Ushbu misoldagi *“... sessiyasi ishida ishtirok etdi”* iborasi presuppozitivlik vazifasida qo'llanilgan bo'lib, keyingi voqealar ma'lumotlar uchun informativ vazifani bajargan. *“... qismi erib yo'qoldi”* ma'lumoti informativlik vazifasida qo'llanilib, bo'lib o'tgan voqea-hodisalar haqida xabar berayapti. *“... kelishishga chaqirdi”* iborasi informativlik vazifasini bajarib, kelajakda sodir bo'lishi kerak bo'lgan harakatni anglatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Publitsistik matnning kompozitsional ifodasi”** deb nomlangan. Unda aspektual va temporal birliklarning kogerentlik vazifasi, temporal birliklarning kogeziyadagi o'zni, aspektual va temporal hodisalarning publitsistik matndagi funksiyalari misollar orqali talqin qilingan.

